

XALQARO AVTOMOBIL FEDERATSIIYASI BILAN HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro avtomobil federatsiyasining (FIA) Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Bosh assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan ushbu nufuzli tashkilotning prezidenti Muhammad bin Sulaym boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuvda delegatsiya tarkibida FIA Senati prezidenti Karmelo Sans de Barros hamda mobillik va turizm bo‘yicha vitse-prezidenti Tim Shirman ham ishtirok etdilar.

Avtosportni tartibga soluvchi va yo‘l harakati xavfsizligini targ‘ib qiluvchi ushbu global tashkilot bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Muhammad bin Sulaym O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan professional va ommaviy sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, aholi o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashga

qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni yuqori baholadi.

Mamlakatimizda avtomobil sportining kartingdan tortib, to “Formula” poygalarigacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlarini rivojlantirishda yaqindan hamkorlik qilish muhimligi qayd etildi.

FIA universitetining imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘zbekistonlik poygachilar, karting haydovchilari, muhandislar, konstruktor va mexaniklarni tayyorlash, O‘zbekistonda zamonaviy avtosport infratuzilmasini yaratish, piyoda va transport vositalari harakati xavfsizligini ta‘minlash dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashish hamda mazkur xalqaro tashkilot shafeligida xalqaro musobaqalar, avvalo, “Formula-1” bosqichlarini o‘tkazish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida mamlakatimiz yetakchisi Xalqaro avtomobil federatsiyasi bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekistonda avtosportni xalqaro standartlarga muvofiq ommalashtirishga qo‘shgan katta shaxsiy hisssasi uchun FIA rahbariga davlatimizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

Ta‘kidlash joiz, O‘zbekiston 2019-yildan buyon federatsiyaning faol a‘zosi hisoblanadi. O‘tgan yili Samarqandda FIAning 120 yilligiga bag‘ishlangan navbatdan tashqari Bosh assambleyasi bo‘lib o‘tgan edi. Bu yilgi tadbir doirasida 12-dekabr kuni “Humo Arena” majmuasida yuqori martabali xorijiy mehmonlar hamda chempion poygachilar ishtirokida eng namunali sportchilar va jamoalarni taqdirlash marosimi o‘tkaziladi.

O‘ZA

AVTOMOBIL YO‘LLARI SOHASIDAGI ISHLAR HOLATI VA NAVBATDAGI VAZIFALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev avtomobil yo‘llari sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusi rejaralar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Oxirgi uch yilda sohada bajarilgan ishlar, moliyalashtirish hajmi va amaliy natijalar haqida ma‘lumot berildi.

Ushbu davr mobaynida avtoyo‘l sohasiga qariyb 40 trillion so‘m ajratilib, 63 ming kilometr yo‘lda qurilish va ta‘mirlash ishlari bajarildi. Sohaga xorijdan jalb qilinayotgan mablag‘lar 3 barobar oshib, 2025-yilda 1,2 milliard dollarga yetdi. Yo‘l qurilishida namunaviy andozalardan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda loyihalashtirish amaliyoti joriy etildi. Zamonaviy turdagi qoplamalar ishlab chiqilib, yo‘llarning xizmat muddati 1,5 barabarga oshirildi.

Taqdimotda sohada mavjud muammolarni hal etish yuzasidan taklif va rejaralar taqdim qilindi. Avvalo, mavjud umumiy foydalanishdagi va ichki yo‘llar hamda ko‘priklarni ta‘mirlash,

yangilarini barpo etishda ilg‘or tajriba va jahonda o‘zini oqlagan texnologiyalardan foydalanish sustligi qayd etildi.

Kelgusi yillarda 21 ming kilometr yo‘llarni qurish va ta‘mirlash, 14 ming kilometr tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish hamda 325 ta ko‘priklarni ta‘mirlash rejalashtirilgan. Bunda xorijiy ekspertlar va texnologiyalarni keng jalb qilish, ilg‘or standartlarni joriy qilgan holda ishni tashkil etish topshirildi.

Og‘irligi me‘yordan ortiq yuk avtomashinalarining harakatlangani oqibatida 1800 kilometr yo‘l ta‘mirlalab holga kelib qolganini ko‘rsatib o‘tildi.

Shu munosabat bilan yuk transporti vaznini nazorat qilish uchun o‘lchov tarozilari tarmog‘ini kengaytirish zarurligi qayd etildi. Hozirda 9 ta shunday tarozii o‘rnatilgan, 8 tasini o‘rnatish ishlari davom etmoqda. Kelgusida

yana 35 ta ko‘chma va stasionar nazorat-o‘lchov maskanini barpo etishga topshiriq berildi.

Mutasaddirlarga og‘irlik va gabarit nazorati bilan bog‘liq barcha jarayonlarni qamrab olgan idoralararo elektron axborot tizimini ishga tushirish topshirildi. Shuningdek, ob-havo sharoitlaridan kelib chiqib, og‘ir vaznli transport vositalari harakatlanishini mavsumiy cheklash tartibini ishlab chiqish taklif etildi.

Bugungi kunda yangi yo‘llarning 61 foizini, “Tashabbusli budjet” doirasida esa ichki yo‘llarning 92 foizini xususiy sektor qurmoqda. Uzoq yillar davlat monopoliyasida bo‘lgan yo‘llarni saqlash ishlari ham bosqichma-bosqich xususiy sheriklikka berilmoqda.

Bu ishlarni kengaytirib, kelgusi yilda 3 ming kilometr, 2030-yilga borib esa 6,3 ming kilometr

yo‘llarni saqlashga tadbirkorlarni jalb qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida 86 ta tumanda quriladigan yo‘llarni to‘liq mahalliy pudratchilarga berish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Sohada raqamlashtirish darajasi past ekani, mavjud 59 ta xizmatning faqat 20 tasi raqamlashgani qayd etildi. Kelgusi yilda 28 ta xizmatni elektron shaklga o‘tkazish, intellektual transport tizimini joriy etish va 7 ta yangi elektron platformani ishlab chiqish muhimligi ta‘kidlandi.

Taqdimot yakunida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston avtomobil yo‘llarini 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

O‘ZA

QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLIALASHTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISHNING YANGI TIZIMI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-dekabr kuni paxtachilik va g‘allachilikni moliyalashtirishni samarali tashkil etish hamda agrar sohada subsidiyalar ajratish yangi tizimi yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimot avvalida joriy yilda sohaga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar va ularning natijalari haqida axborot berildi.

Qayd etilganidek, paxtachilik va g‘allachilikni moliyalashtirish, qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlash va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga jami 29 trillion so‘m ajratildi. Sohaga 2,35 trillion so‘m subsidiyalar yo‘naltirildi.

O‘z mablag‘idan paxta yetishtirgan xo‘jaliklarga paxta qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratilishi natijasida 3430 fermer va klasterlar 151 ming gektar maydonda o‘z mablag‘i hisobidan paxta yetishtirdi va 1,9 trillion so‘m resurs tejaldi.

Yoki paxta yetishtirishga olingan kreditni joriy yil yakuniga qadar to‘liq qaytargan fermerlarga foiz to‘lovining 4 foiz bandini qaytarib berish imkoniyati tufayli 9002 fermer 2,5 trillion so‘m imtiyozli kreditlarni muddatidan oldin qaytardi.

Kelgusi yilda paxta va g‘alla hosili, subsidiya va boshqa xarajatlarga jami 34,2 trillion so‘m ajratish rejalashtirilgan, qo‘shimcha 200 million dollar mablag‘ jalb etilib, 800 ta paxta terish mashinasi xarid qilinishi aytib o‘tildi hamda bu borada taklif etilayotgan yangi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ko‘rib chiqildi.

Jumladan, 2026-yilda agrotexnik tadbirlar, shu jumladan, plyonka va egiluvchan quvurlar uchun qo‘shimcha 5 trillion so‘m ajratish taklif qilindi. Hosil yetishtirishda kredit limitining 50 foizigacha foydalanganda, sotilgan paxta qiymatining 5 foizi miqdorida subsidiya ajratilsa, o‘z mablag‘i va qisman kredit hisobidan hosil yetishtiradigan fermerlar soni 4-4,5 mingga yetishi va ularning 2,5-3 trillion so‘m mablag‘i iqtisod bo‘lishi ta‘kidlandi.

Hozirda fermerlarga kredit ajratishda moliyaviy barqaror xo‘jaliklarga ham, to‘lov intizomiga rioya etmayotganlariga ham bir xil foiz stavkasi qo‘llanmoqda. Shu munosabat bilan fermerlar orasida “intizomli bo‘lish — arzon kredit” modelini shakllantirish uchun “A” kredit reytingiga ega xo‘jaliklarga

2 foizga, “B” toifadagilarga 1 foizga pasaytirilgan stavkada kredit ajratish va shu orqali intizomli fermerlarning kredit yukini kamaytirish taklif qilindi.

Shuningdek, o‘z mablag‘i hisobidan bug‘doy yetishtirgan fermerlarga 10 foiz subsidiya ajratish tashabbusi bildirildi.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil 22-noyabrda “Agrar sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq agrar sohada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida Agrar sohada to‘lovlar agentligi tashkil etildi.

Taqdimotda agentlikka yuklatilgan vazifalar ijrosi qanday tashkil etilishi ko‘rib chiqildi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida 52 turdagi subsidiya ajratilmoqda. Yangi tizimda ushbu jarayon soddalashtirilib, inson omili tubdan qisqartirilib, byurokratiya kamaytiriladi, arizalarni ko‘rib chiqish to‘liq raqamlashtiriladi va barcha jarayonlar “Agroportal” orqali amalga oshiriladi.

Buning uchun “Agrosubsidiya” axborot tizimiga 10 dan ortiq vazirlik va idoralarning axborot tizimlari integratsiya qilinadi.

Jumladan, 2026-yil uchun mo‘ljallangan 1,3 trillion so‘mlik subsidiyalarni talabgorlar ishtiroki zarur bo‘lmagan holda davlat idoralari tomonidan proaktiv tarzda, qolgan subsidiyalari ayrim kelishish, xulosa olish va hujjatlarni rasmiylashtirish bosqichlarini chiqarib tashlagan holda soddalashtirilgan tartibda, ortiqcha ovoragarchiliksiz beriladi. Natijada subsidiya ajratish muddatlari keskin qisqardi.

Davlatimiz rahbari moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, subsidiyalarning manzilliligi hamda tezkorligini ta‘minlash, barcha jarayonlarni raqamlashtirish va fermerlar uchun qulay sharoit yaratish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

MAHALLALARDA ISHSIZLIK VA KAMBAG‘ALLIK KAMAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mahallalarni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududlarga aylantirish, aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot bilan tanishdi.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda ishga solinmayotgan imkoniyatlar, bu boradagi sustkashliklar ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda “mahalla yetitilgi” a‘zolarining ish samaradorligini baholash uchun aniq mezonlar mavjud emasligi, ularning asosiy vazifasi bo‘lgan ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishda mas‘uliyatini yanada oshirish zarurligi ta‘kidlandi. “Yetitilgi” faoliyati aholi bandligi va daromadlari o‘rtasida bevosita aks etishi shartligi, mazkur yo‘nalishda manzilli va natijaga yo‘naltirilgan ishlarni kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Mahallalarda kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirishda, avvalo, ularning muammolari va “o‘sh nuqtalari”ni aniqlab, tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish topshirildi. Shuningdek, aholi murojaatlarini bevosita mahallaning o‘zida hal etishga e‘tiborni kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

Og‘ir toifadagi mahallalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘rib chiqildi. Ushbu hududlarga alohida e‘tibor qaratib, infratuzilma, elektr ta‘minoti, internet tarmog‘i, tomorqadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish topshirildi.

Joriy yilda mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 6 foizga tushishi kutilmoqda. Kelgusi yilda bu ko‘rsatkichni 4,5 foizgacha qisqartirish maqsad qilingan.

Buning uchun mahallalarda ishlarni tashkil qilishga kompleks yondashish, barqaror bandlik yo‘nalishidagi xizmatlar qamrovini kengaytirish, daromad manbalarini yaratish, aholini kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka jalb qilish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

QISHLOQ XO‘JALIGI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA RIVOJIGA MUNOSIB HISSA QO‘SHGAN YURTDOSHLARIMIZDAN BIR GURUHNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tizimidagi ko‘p yillik fidokorona mehnati, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, intensiv agrotexnik usullarni qo‘llash orqali yuqori hosildorlikka erishish, el-yurt farovonligini yuksaltirishga qo‘shgan munosib hisssasi, ilg‘or innovatsion texnologiyalar va zamonaviy ilmfan yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, mahsulotlarni sifati qayta ishlash, yurtimiz eksport salohiyatini oshirish yo‘lidagi samarali faoliyati, malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlanin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan paxtakor” faxriy unvoni bilan

Abduraxmonov Abdunabi Abduraimovich — Sharof Rashidov tumanidagi “Qo‘rg‘ontepa” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Jizzax viloyati

Matniyozov Po‘lat Yoqubovich — Bog‘ot tumanidagi “Yoqub bobo o‘g‘li Omon” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Xorazm viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni bilan

Komilov Tursunboy — To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Komilov Tursunboy” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi ish boshqaruvchisi, Namangan viloyati

Masharipov Uktam Rustamovich — Xorazm viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

Ruziyev Zafar Sharopovich — Jizzax viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

Sanoyev Yodgor — Vobkent tumanidagi qishloq xo‘jaligi bo‘yicha “Xayrobod” hududi rahbari, Buxoro viloyati

Davomi 2-betda



AFG‘ONISTONDA “UZELECTRONICS” SAVDO MARKAZI OCHILDI

Xorijda kichik do‘kon ochgan o‘zbek tadbirkori haqida eshitish avval biz uchun hayratlanarli voqea bo‘lardi. Hozir bunga odatlanib qoldik. Chet davlatlarda nafaqat do‘kon, balki katta savdo uylari, markazlari ochilib, o‘zbek brendidagi mahsulotlar yirik hajm va assortimentda sotilyapti. Ahamiyatlisi, bu kabi sa‘y-harakatlar davlatimiz va tadbirkorlar hamkorligida amalga oshirilmoqda. Maqsad — milliy mahsulotlarimizni jahon bozorida keng tanitish, yangi bozorlarga kirib borish va eksport hajmini oshirish.

Davomi 4-betda

